

Kamoliddin TOSHOV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenei v.b., (PhD).

Nurullo TURSUNOV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenei, tarix fanlari doktori (DSc)

E-mail: kamoliddintoshov81@gmail.com

Tel: 997474751

Termiz davlat universiteti professori, t.f.d S.Tursunov taqrizi asosida

THE HEROICS OF THE PEOPLE OF SURKHONDARYO REGION AT THE FRONT

Annotation

In the article, the contribution of the Uzbek people to the Great Victory, the life, courage and fortitude of our compatriots, as well as the heroism of the people of Surkhondarya region at the front, the mention of the names of the deceased citizens who sacrificed their lives for the freedom of the Motherland, and the pride in them are studied in the article. .

Keywords: front, scourge of fascism, military commissariat, letter, life-and-death struggle, defense, material goods, war, heroism, loyal to friendship, partisan, intelligence, kindness, patriotism, courage.

ГЕРОИКА НАРОДОВ СУРХОНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ НА ФРОНТЕ

Аннотация

В статье вклад узбекского народа в Великую Победу, жизнь, мужество и стойкость наших соотечественников, а также героизм жителей Сурхандарьинской области на фронте, упоминание имен погибших В статье исследуются граждане, отдавшие свою жизнь за свободу Родины, и гордость за них.

Ключевые слова: фронт, бич фашизма, военкомат, письмо, борьба не на жизнь, а на смерть, оборона, материальные блага, война, героизм, верность дружбе, партизан, ум, доброта, патриотизм, мужество.

SURXONDARYO VILOYATI AHLINING FRONTDAGI QAHRAMONLIKLARI

Annotatsiya

Maqolada ikkinchi jahon urush yillarida o'zbek xalqining Buyuk G'alabaga qo'shgan hissasi, vatandoshlarimiz hayoti, jasorati va matonati hamda Surxondaryo viloyati ahlining frontdagi ko'rsatgan qahramonliklari, Vatan ozodligi uchun jon fido qilgan marhum azamat jangchilarning nomlarini e'zoz bilan tilga olish, ular bilan faxrlanish kabi jihatlarni tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: front, fashizm balosi, harbiy komissariyat, xat, hayot-mamot jang, mudofaa, moddiy ashyolar, urush, qahramonlik, do'stlikka sodiq, partizan, razvedka, mehr-oqibat, vatanparvarlik, jasorat.

Kirish. Dunyoda tinchlikni saqlash insoniyatning tinch va xotirjam yashashini ta'minlash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar asosida xalqimizning ma'naviy salohiyatini oshirish, milliy o'zlikni yuksaltirish, yurtparvarlik, insonparvarlik tamoyillariga alohida e'tibor berilmoqda. Qolaversa, o'zbek xalqi mardonavor bosib o'tgan Ikkinchi jahon urushi tarixini xolisona o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi. Albatta o'zbek xalqi ham ushbu g'alabani ta'minlanishiga o'zining munosib o'rni qo'shadi.

XX asr insoniyat tarixida Ikkinchi jahon urushi eng og'ir fojiaviy iz qoldirgan tarixiy voqealardan sanaladi. Ikkinchi jahon urushida o'sha davrda mustaqil bo'lgan 73 ta davlatdan 62 tasi ishtirok etgan va bu jarayon er aholisining 80 foizini qamrab olgan. 110 million qurolli askar ishtirok etgan bu urushda taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, 60 million kishi qurbon bo'lgan. Shu bois ham bu urush chin ma'noda haqiqiy Jahon urushiga aylanib ketgani e'tirof etiladi.

Ikkinchi jahon urushi davrida million-milionlab begunoh insonlarning umri xazon bo'lganini, qancha-qancha oilalar xonavayron bo'lib, go'daklar etim qolganini tarix, bugungi va kelajak avlod hech qachon unutmaydi. Bu g'alaba jahon xalqlari tarixida hech shubhasiz, abadiy saqlanib qoladigan ulug' sanadir. Bu sana Xalqaro miqyosda ham e'tirof etilganligi sababli, Ikkinchi jahon urushi qurbonlari xotirasi uchun 2004 yil noyabr BMT Bosh Assambleyasi rezolyusiyasida 8 va 9 may kunlarining Xotira va Yarash kuni sifatida e'lon qilinishi bu boradagi muhim tadbirlardan sanaladi. Chunki aynan shu g'alaba insoniyatni behisob balo-qazolardan saqlab qoldi. Shu bois ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabani ahamiyati hech qachon o'z qadrini yo'qotmaydi hamda bu mavzu dolzarbligicha qoladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuni yoritishda Ikkinchi jahon urushi yillarida Surxon vohasi ahlining frontda va front ortidagi jasoratlari tarixiy manbalar asosida ko'rsatiladi. Maqolada ko'tarilgan masala tarixnavislik fanida nisbatan kam o'rganilgan soha sanaladi.

Surxondaryoliklarning urush yillarida frontda va front ortidagi jasoratlari to'g'risida ko'pgina asarlar yaratildi. Biroq Sh.Karimovning "G'alabaga qo'shilgan hissa" asarida o'zbek xalqining frontga qo'shgan hissasi yoritilgan bo'lsa, S.Tursunov va T.Pardaevlarning "Ikkinchi jahon urushi yillarida Sherobodliklarning jasorati", o'sha mualliflarning "Unitilmas jasorat", S.Tursunov, O.Soatov, X.Jo'raevlarning "Xotira barhayot-qadrlash mangu", O.Soatov, S.Tursunov va K.Toshovlarning "Frontdan kelgan xatlar" kitoblarida Surxon vohasi ahliga jigargo'shalaridan kelgan xatlarida vatanparvarlik tuyg'ulari va ko'rsatgan jasurligi yoritilgan bo'lsa, O.Soatov, S.Tursunov va K.Toshovlarning "Vatan yo'lida fidoiy jonlar" asarida vatanimiz yo'lida o'z jonini fido etgan jafokash xalqimizning metin irodali vakillari haqida bayon etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda tarix fanining tarixiylik xolislik, muammoli xronologik, ketma-ketlik, qiyosiylik, taqqoslash, oddiydan murakkabga tomon izchillik sengretika metodlaridan umumiy foydalanildi. Surxondaryo tarixini haqqoniy o'rganib, uning mohiyatini anglash o'quvchilarga ajdodlarning tarixiy an'analariga oid manbalari, ularning tarixan tarkib topganligini tushunib olishlariga yaqindan ko'mak beradi. Bu esa yosh avlodning tarixiy ongini shakllantirish vazifasini bajarishni maqsadi ekanligini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. Darhaqiqat, fashistlar Germaniyasi ustidan g'alabani ta'minlashda o'zbek xalqining ham nihoyatda katta hissasi bor. Mash'um urush yillarida o'zbek xalqi ham fashizmga qarshi kurashda mislsiz jasorat ko'rsatdi.

SSSR ga hujum qilgan fashistlarning qo'qqisdan havo hujumi uyushtirishi mumkin bo'lgan hududlar qatoriga Termiz shahri ham kiritildi. Chunki bu davrda Eronda beqaror vaziyat hukmron bo'lib, dushman samolyotlarining Eron yoki Afg'oniston orqali hujum uyushtirish xavfi ham yo'q emas edi. Buni inobatga olgan Termiz shahar ijroiya komiteti "havo hujumi bo'yicha

Termiz shahar territoriyasini xavfli zona deb e'lon qilish haqida" farmoyish chiqardi. Havo hujumi bo'lgan taqdirda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va chora-tadbirlar belgilab olindi.

Harbiy xizmatga chaqirilgan vohadoshlarimizning bir qismi 1941-yilning 28-avgustida 58-o'qchi korpusi 68-tog'-o'qchi diviziyasining 139-artilleriya polki tarkibida Eronga yuborildi. Negaki, AQSH va Buyuk Britaniya hukumatlari Sovet Ittifoqiga jo'natayotgan harbiy yordamning bir qismi aynan Eron orqali o'tkazilayotgan edi. Surxondaryolik jangchilar Tehron konferensiyasi ishining tinch o'tishida ham o'z hissalarini qo'shishdi. Ularning Eronda bo'lishi to 1945-yilning yoziga qadar davom etdi.

Urushning ilk oylaridan mehnatkashlarning iltimosiga binoan O'zbekistonda milliy qo'shimalar tuzishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, 1942-yil yanvarida Termiz shahrida 92-alohida o'qchi milliy brigadasi tashkil qilindi[1].

Termiz shahrida surxondaryoliklardan 213-o'qchi diviziya shakllantirildi. 1941-yil 1-noyabridan diviziya O'rta Osiyo harbiy okrugiga bo'ysundirildi. Uning joylashish joyi Termiz shahri harbiy qo'rg'oni bo'ldi. Shu erdan frontga jo'natildi va 1943-yil 1-martidan Oliy Bosh Qo'mondonlik Stavkasining zahirasiga kiritildi. Ushbu qism dastlab Kursk ostonalarida o'zini ko'rsatdi. Jangchilarimiz Shebakino va Belgorod shaharlarining janubida qattiq turib jang qildilar, birinchilardan bo'lib Dneprdan kechib o'tishdi, Moldaviyani ozod etishdi, Yassi-Kishinyov operatsiyasi va Visla-Oder operatsiyalarida qatnashib, Ruminiya, Polsha va Chexoslovakiyani ozod qilishda ishtirok etishdi. Dneprni kechib o'tishda ko'rsatgan jasoratlar uchun 213-diviziyaning quyidagi zobitlari-termizlik mayor Lyubimov Aleksey Ilich, diviziya shtabi boshlig'i podpolkovnik Baranov Nikolay Andreyevich, 739-o'qchi polkining komandiri, podpolkovnik Vashkevich Aleksandr Aleksandrovich va 585-o'qchi polkining komandiri Zaykovskiy Nikolay Vasilevichlar Sovet hukumatining yuksak unvoni bo'lgan Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'lishdi. Janglarda ko'rsatgan qahramonliklari uchun faxriy 213-Novoukrain diviziyasi nomini oldi[2].

Termizlik A.F.Marchenko (1924-2003) urush boshlangan kezlarda endigina 9-sinfni bitirgan edi. Yosh bo'lishiga qaramay, hamshiralar tayyorlash kurslarida o'qidi va Termizdan frontga jo'nayotgan 213-o'qchi diviziyaning 373-tibbiy-sanitariya qismiga qabul qilindi. Shu tariqa bu ayolning jangovor hayoti boshlandi. Kursk yoyi janglaridagi jasorati tufayli "Jangovor xizmatlari uchun" medali bilan taqdirlandi. Keyinchalik, Dnepr daryosini kechib o'tish paytida ko'rsatgan jasorati uchun ikkinchi marta ana shunday medal bilan mukofotlandi. Ruminiya, Polsha va Chexoslovakiyani ozod qilishda, Visla va Oderdagi jang maydonlaridan o'nlab yaradorlarni olib chiqqanligi uchun "Qizil Yulduz" ordeni va yana 3 ta medal bilan ham taqdirlandi. 1945-yilda u qadrdon Termiz shahriga sog'-salomat qaytib keldi. Keyinchalik, 1977-yilda Termiz shahridagi 3-sonli maktabda jangovor shon-shuhrat muzeyini tashkil etdi. Uch marta janggohlar o'tgan joyga borib, ko'plab eksponatlar olib keldi. Ana shunday eksponatlardan 28 tasini Ittifoq Qurolli Kuchlar muzeyiga, SSSR xalq yutuqlari ko'rgazmalariga taqdim etdi. U o'zi tashkil etgan jangovor shon-shuhrat muzeyi haqida va ikkinchi jahon urushi qatnashchilari to'g'risida hikoya qiluvchi kitob muallifi hamdir[3].

213-o'qchi diviziyasida xizmat qilgan sherobodlik Jovli Boymatovich Boymatov jangovor yo'lini 1943-yilning mart oyidan Shimoliy Donesk yoqasida to'p mo'ljallovchisi (navodchik) sifatida boshladi. Xarkov va Merefa shaharlari bo'sag'asidagi janglarda o'zini ko'rsatdi. Jovli Boymatov 1944-yil 20 avgustda boshlangan Yassi-Kishinev va Berlin operatsiyalarining qatnashchisi. 1945-yil 18-aprel kuni Jovli Boymatov komandirlik qilayotgan to'p raschyoti 16 ta tank madadiga tayangan holda qarshi hujumga o'tgan dushman bilan olti marta to'qnashdi. To'p raschyotining butun tarkibi ishdan chiqdi, ammo komandir Jovli Boymatovning bir o'zi jangni davom ettirdi va dushman hujumini qaytarish davomida fashistlarning uchta tanki va 50 nafar askarini safdan chiqardi.

Bu jangda Jovli Boymatovning o'zi ham halok bo'ldi, ammo birorta fashistni o'tkazmadi. Qahramonning jasadi Germaniyadagi Nodersref qishlog'idan 400 metr shimoli-sharq tomondagi Bezimyannaya tepaligida dafn qilingan. O'limidan so'ng 1943-yil 4-dekabrda 37-armiya qo'mondoni va 1945-yil 19-may kuni 52-armiya qo'mondoni buyrug'i bilan 1- va 2-darajali "Vatan urushi" ordenlari bilan mukofotlandi[4: B. 281-282].

Ushbu diviziya tarkibida xizmat qilgan sherobodlik vohadoshimiz G'ofir Aminqulov (1925-2017) ham katta jasorat ko'rsatdi. Dneprning narigi qirg'og'ida sovet qo'shinlari plasdarm egallab olganlarida sanitar bo'lib xizmat qilayotgan G'ofir Aminqulov o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, yuzlab yarador jangchilarning hayotini saqlab qoldi. 1943-yil noyabr boshida bo'lib o'tgan janglarda yarador askarni olib chiqish paytida nemislar tomonidan otilgan mina portlashi oqibatida og'ir yarador bo'ldi va 1944-yili urush nogironi sifatida uyiga qaytarib yuborildi. G'ofir Aminqulov urushda ko'rsatgan jasorati uchun 1944-yilda 1-darajali "Vatan urushi" («Otechestvennaya voyna») ordeni bilan mukofotlandi[4: B. 97-100].

Ushbu diviziyada xizmat qilgan yurtdoshlarimizdan biri sherobodlik Umar Xolmurodovdir (1906-1966 yy.). 1943-yilning 6-martida harakatdagi armiya safiga chaqirildi. Urush yillari 1-gvardiyachi havo desanti diviziyasi, 4-gvardiyachi havo desanti artilleriya polkida batareya komandiri o'rinbosari, keyinchalik batareya komandiri sifatida Novgorod oblastining Staraya Russa ostonasidan boshlab, Ukrainaning Kiyev, Chernigov, Korsun-Shevchenko, Cherkassk oblastlari, Moldaviya SSR, Ruminiya, Vengriya va Chexoslovakiya singari davlatlarni fashistlardan ozod qilishda qatnashdi. 1944-yilning sentyabrda yarador bo'ldi. Shunga qaramay, qurol-doshlaridan orqada qolib ketmaslik maqsadida davolanishni to'liq tugatmay, jangovor faoliyatini davom ettirdi. Urush vaqtida jangchi-shoir sifatida tanildi. Uning frontdan yo'llagan she'rlari Surxondaryo oblast va front gazetalarida muntazam chop etib turildi. Janglarda ko'rsatgan qahramonliklari uchun bir nechta orden va medallar bilan taqdirlandi[4:B.165].

O'nlab surxondaryoliklar razvedkachilik bilan shug'ullandi. Ana shunday qo'rqmas va dovyurak razvedkachilar orasida termizlik Xurram Ashurov, Normurod Mamatqulov va sherobodlik Sergey Petrov singari vatanparvarlar ham bor edi. Bu yigitlar dushman ichiga kirib, "til" olib kelishdek og'ir vazifani sharaf bilan bajardilar. Normurod Mamatqulov urush davomida 70 nafar fashistni qo'lga tushirishga muvaffaq bo'ldi. Ulardan 65 nafari oddiy askar va 5 nafari zobitlar edi[5].

Termiz shaharlik Xurram Ashurov 14 yoshda bo'lishiga qaramay 1941-yil iyunida frontga jo'nab ketdi. Xurram Ashurov urushda razvedkachi sifatida ish boshladi. Qo'mondonlik topshirig'i bilan tez-tez front chizig'idan o'tib, ma'lumot to'plash hamda "til" olib kelish bilan shug'ullanar edi. Urushdan keyin shtabdagilar hisoblab ko'rishsa, u to'rt-yil ichida 233 nafar "til", shundan 34 nafari fashist zobiti edi. 1945 yilning yanvarida 57-gvardiyachi diviziya qo'mondoni, atqoli o'zbek sarkardasi general Sobir Rahimov uni o'z ad'yutanti etib tayinladi. O'zining tili bilan aytganda, u "polk o'g'li" (ruscha «sin polka») va general Sobir Rahimovning tutingan o'g'li edi. Urush davomida 8 marta jarohat, Xurram Ashurov uch marta kontuziya oldi. Qizil askar daftarchasi o'q bilan teshilgan edi. 21 ta hukumat orden va medallari bilan taqdirlandi[6].

Yana bir dovyurak razvedkachi-yurtdoshimiz sherobodlik Ulash Qurbonovdir (1910-2000 yy). Uning jangovor hayoti 1943-yildan boshlandi. Oldiniga aloqachi, so'ngra razvedkachi bo'lib xizmat qildi. Bir necha marta razvedkaga jo'natilgan bo'lsa, hammasi muvaffaqiyatli kechdi. U ko'p marta "til" olib kelishga muvaffaq bo'ldi. 1944-yil aprel-mayda Sevastopolni

ozod qilishda qatnashdi. Bundan keyin 2-Belorussiya fronti tarkibida Polsha va Germaniyani ozod qilishda qatnashdi. Urushda ko'rsatgan jasorati uchun 1-darajali "Vatan urushi" ordeni, 1-darajali Shuhrat ordeni va boshqa medallari bilan taqdirlandi.

Urush yillarida dushmanning orqa tomonidan turib olib borilgan partizanlik harakatlarida qatnashgan vohadoshlarimiz polk komandiri Ahmad Siddiqov va sariosiyolik partizan A.P.Sornaskiyning nomini keltirib o'tish mumkin. Andrey Petrovich Sornaskiy batalon komandiri bo'lib, o'z jangchilari bilan bosqinchilarga qaqshatqich zarbalar berdi. A.P.Sornaskiy bataloni 49 kunda etti marta jangovar operatsiyalar uyushtirishga erishdi. Ular bu operatsiyalarda 82 nafar fashistni o'ldirib, dushmanlarning 6 ta mashinasini qo'lga tushirdi, 160 bosh qoramol esa nemislar qo'lidan tortib olindi[7].

Urush yillarida frontda ko'rsatgan jasoratlari uchun o'zbekistonliklardan 120000 jangchi hukumat orden va medallari bilan taqdirlandi. Ulardan 280 kishi Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi, shundan 69 nafari o'zbek edi. 32 kishi "Shuhrat" ordenining har uchala darajasi bilan taqdirlandi. Surxondaryoliklardan olti nafari-yefreytor I.M.Kolodiy, mayor A.I.Lyubimov, Kichik leytenant M.F.Murashkin, polkovnik S.F.Protsenko, gvardiyachi polkovnik S.I.Chernishev, A.B.Shamkaevlar Sovet Ittifoqi Qahramoni, uch nafari esa "Shuhrat" ordenining to'la nishondori bo'ldilar. 3769 kishi turli xil orden va medallar bilan mukofotlandi.

1941-yilda O'zbekiston aholisi jami 6,5 million kishini tashkil etgan, shundan urushda O'zbekistondan 1 million 951 minga yaqin kishi ishtirok etib, shundan 538 ming o'zbekistonlik fuqarolar xolok bo'ldilar. Urush davrida 158 ming hamyurtlarimiz bedarak ketgan bo'lsa, sovet tuzimi siyosati tufayli boshqa o'lkalarga quloq va surgun qilingan 59 mingdan ortiq yurtdoshlarimiz urushda boshqa o'lkalar hisobidan qatnashgan[8]. Surxondaryoliklardan 82274 kishi frontga jo'natilgan bo'lsa, shundan 22500 nafari qaytib kelmadi.

Mustaqillik yillarida front va front orti ishlarida qatnashgan fuqarolarimiz hukumatimiz tomonidan alohida g'amxo'rlikka olindi. Fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning 50 yilligi munosabati bilan janglarda halok bo'lgan 400 mingga yaqin yurtdoshlarimiz to'g'risida 33 jildlik "Xotira" kitobi yaratildi. 1999-yil 2-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "9-mayni Xotira va qadrlash kuni, deb e'lon qilish to'g'risida" gi Farmoni e'lon qilindi. Shundan buyon fashizm ustidan g'alaba qozonilgan 9-may kuni yurtimizda "Xotira va qadrlash" kuni sifatida o'tkazilmoqda. Urushda qurbon bo'lganlarni xotirlash, biz bilan hozirgi kunlarda yonma-yon yashayotgan urush faxriylari va front orti ishlarida qatnashgan yurtdoshlarimizni qadrlashdek insoniy ishlar yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda esa keksalik gashtini surayotgan urush faxriylari yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta hissa qo'shib, mustaqil O'zbekistonimiz yoshlariga Vatanga muhabbat, do'stga sodiqlik, sabr-qanoat, insofu diyonat, ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik hislarini o'z nasihat va o'gitlari orqali singdirmoqdalar hamda davlatimizning yanada ravnaq topishiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Jumladan, jariy yilning 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha umumxalq referendumida ikkinchi jahon urushi qatnashchilari Qumqo'rg'on tumanidagi "Munchoqtepa" mahallasidan 100 yoshdagi Hayit Musaev hamda Denov tumanidagi "A. Jomiy" mahallasidan 98 yoshli Dosek Meredovlar vatan oldidagi vazifasini bajarish uchun Surxondaryodagi referendum uchastkalarida o'zlari borib qatnashdilar. Bundan ko'rinib turibdiki yigitlik chog'ida vatan uchun kurashgan bo'lsa, keksalik chog'ida ham vatan ravnaqiga o'z hissasini qo'shmoqdalar.

O'zbekistonda istiqomat qiluvchi ikkinchi jahon urushi va front orti qatnashchilarining soni 2023-yil 6-may holatiga ko'ra 174 nafarni tashkil qiladi. Ularning soni viloyatlar kesimida qataydigan bo'lsak, Qoraqalpog'iston Respublikasida 3 nafar, Andijon viloyatida 6 nafar, Buxoro viloyatida 7 nafar, Jizzax viloyati 6 nafar, Qashqadaryo viloyatida 10 nafar, Navoiy viloyatida 9 nafar, Namangan viloyatida 3 nafar, Samarqand viloyatida 10 nafar, Sirdaryo viloyatida 3 nafar, Surxondaryo viloyatida 8 nafar, Toshkent viloyatida 26 nafar, Farg'ona viloyatida 19 nafar, Xorazm viloyatida 5 nafar hamda Toshkent shahrida 55 nafarni tashkil etadi. Respublika bo'yicha 100 va 100 yoshdan oshgan Ikkinchi jahon urushi va frontorti qatnashchilarining soni 25 nafarni tashkil qiladi.

Xulosa va takliflar. Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizm balosiga qarshi kurashda butun insoniyat qatorida O'zbekiston, shu jumladan, Surxondaryo viloyati aholisi ham mislsiz jasorat ko'rsatdi. Fashizmni yakson qilishda surxondaryolik botirlar ham qo'llariga qurol olib mardlik namunalari ko'rsatib, dushmanga ayovsiz qirg'in keltirdilar. Bu qonli janglarda vatan ozodligi yo'lida minglab surxondaryoliklar shahid bo'lgan bo'lsa, minglab botir azamatlar g'alaba bahorini qarshilab, o'z yurtlariga ochiq yuz bilan qaytish baxtiga muyassar bo'ldilar.

Umuman olganda Ikkinchi jahon urushi butun insoniyatni og'ir sinovdan o'tkazdi. Ushbu urushdan chiqarilgan eng katta saboq sifatida urushning oldini olish, dunyoda tinchlikni saqlab qolish umumbashariy muammolardan biri ekanligi e'tirof etildi.

ADABIYOTLAR

1. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yxat, 27-ish, 204-varaq.
2. Termiz shahridagi 213-novoukrain o'qchi diviziyasining Jangovor shon-sharaf muzeyi arxivi materiallaridan foydalanildi.
3. Soatov O., Tursunov S., I.Umarov, K.Toshov. Frontdan kelgan xatlar-B.281-282.
4. Моложавенко В. Жаркое солнце Сурхана.-Москва: Мысл, 1982.-С. 186-188.
5. Tursunov S.N. Xotira barhayot-Qadr mangu. - Toshkent: Fan, 2010. - B. 189.
6. Тошов, К. Т. (2021). Героизм Жителей Сурхандарьинской Области В Годы Второй Мировой Войны. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 2(3), 91-96, 2021
7. Toshov, K. T. (2023). THE BEGINNING OF THE WAR AND THE INVOLVEMENT OF ALL FORCES AT THE FRONT. Modern Science and Research, 2(10), 264-268.
8. Тошов, К. Т. (2020). Деятельность трудящихся Сурхандарьинской области по укреплению тыла в годы Второй мировой войны. Бюллетень науки и практики, 6(3), 567-570.
9. Тошов, К. Т. (2020). ГАЛАБАГА ҚЎШИЛГАН МУНОСИБ ҲИССА. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(2).
10. Тошов, К. Т. (2023). Начало войны и взаимодействие всех сил на фронте, European Journal of Interdisciplinary Research and Development, Volume-22, 300-305.
11. Toshov, K. T. (2024). IKKINCHI JAHON URUSH YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATI AHOLISINING G'ALABAGA QO'SHGAN MUNOSIB HISSASI. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 1, 42-49.